

**HARBIY YAROG‘ – ASLAHALAR TURLARI  
TARAQQIYOTIDA OROLBO‘YI KO‘CHMANCHI  
QABILALARI O‘RNI**

*Botirova Nafosat Xurmatbek qizi,  
UrDU, Tarix kafedrasi katta o‘qituvchisi, (PhD)*

**РОЛЬ КОЧЕВЫХ ПЛЕМЕН ПРИАРАЛЬЯ В  
РАЗВИТИИ БОЕВЫХ ОРУЖИЙ  
Ботырова Нафосат Хурматбек кызы,  
старший преподаватель кафедры «История» УрГУ, (PhD)  
THE ROLE OF NOMADIC TRIBES OF THE ARAL  
SEA REGION IN THE DEVELOPMENT OF  
MILITARY WEAPONS**

*Botirova Nafosat Khurmatbek qizi, Senior Lecturer, Department of  
History, Ural State University, (PhD)*

**Annotatsiya:** *Qadimgi davrlar oralig‘i mil. avv. VI-V asrlar davri xususida ko plab izlanishlar, tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, arxeologik ashyolarga qaraganda, mil. avv VI-V asrlarga kelib, og‘ir qurollangan otliq askarlar O‘rta Osiyoning o‘troq aholisida paydo bo‘lgan. Tadqiqotchi M. Mambetullayev fikricha, Xorazm vohasida milloddan. Avvalgi IV- III asrlarda og‘ir qurollangan bilan qurollangan va himoya vositalariga ega bo‘lgan otliq askarlar paydo bo‘lgan [1, стр. 31].*

**Kalit so‘zlar:** Katafraktariy, Chirikrabot, Ustyurt, “Podsho zali”, suvdon – flyaga, yadro, plastinali sovut, Kaparas, To‘qqal‘a.

**Аннотация:** Относительно периода древнейших времен VI-V веков до нашей эры было проведено множество исследований. В частности, по археологическим данным, к VI-V векам до нашей эры среди оседлого населения Средней Азии появились тяжеловооруженные всадники. По мнению исследователя М.Мамбетуллаева, кавалеристы, вооруженные тяжелым оружием и оснащенные защитным снаряжением, появились в Хорезмском оазисе в IV-III веках до нашей эры [1, стр. 31].

**Ключевые слова:** Катафрактари, Чирикработ, Устюрт, «Царский зал», фляга, ядро, пластиновая защитная одежда, Канарас, Токкала.

**Annotation:** Many researches and studies have been conducted on the period of VI-V centuries BC on the interval of ancient times. In particular, compared to archaeological materials, by the 6th-5th centuries BC, heavily armed cavalry appeared among the settled population of Central Asia. According to the researcher M. Mambetullayev, in the Khorezm oasis it started from the millenniums. In the late IV-III centuries, there was appeared the cavalrymen armed with heavy weapons and equipped with protective equipment.

**Ket words:** Katafraktary, Chirikrabot, Ustyurt, “King’s hall”, cistern – flyaga, nuclear, plate cooling, Kaparas, Toqkala.

**Dolzarbligi:**

Katafraktariy deb atalgan og‘ir qurollangan jangchilarning, xususan, Orolbo‘yida vujudga kelishi keyingi tarixiy bosqichlarda Parfiya, Yunon-Baqtriya va Qang‘ davlatlarida og‘ir qurollanish sohasi rivojlanishiga ta’sir qilgan. Mazkur dalil Xorazm aholisi va sak qabilalarining O‘rta Osiyo

qurollanish sohasidagi o‘rni katta ahamiyatga ega ekanidan darak beradi [2, Б. 84].

Orolbo‘yi sarhadlarida, shu jumladan, Xorazm vohasida, sovut, uzun qilich va nayza bilan qurollangan otliq askarlarning kelib chiqishi masalasiga doir bir qator arxeologik dalillar mayjud. Chirikrabotdan topilgan temir plastinalardan iborat

sovut bilan (mil. avv. IV-III asrlar) sak askarining tanasi, qo'llari va oyoqlarini ishonchli himoyalagan, shuningdek, metall Sovut qoldiqlari Tuproqqa'l'a va Ko'hnauaz shahar xarobalarida (milodiy II-III asrlar) aniqlangan [3, Б.72].

### **Metodlar va o'r ganilganlik darajasi:**

Chirikrabetda bronzadan qilingan qilichning uzunligi 80 sm. [4, C. 149] Ustyurt hududidan bronzadan ishlangan qilich uzunligi 106 sm [5, C. 154. рис 2,3.] Tuproqqa'l'adagi "Podsho zali" dan ham shunday uzunlikdagi qilich topilgan.

Janubiy Xorazmda Amudaryoning so'l sohilida joylashgan Xumbuztepadan (mil. avv. VI-IV asrlar) topilgan suvdon – flyaga sopol idishning sirtida Sovut kiygan otliq askarning bo'rtma tasviri mavjud. Tizzasigacha tushadigan plastinali Sovutdag'i suvoriyning chap yonboshida nayza tasvirlangan [6, C. 278].

Qadimiy mudofaa qurollaridan eng asosiyalar dan biri bo'lgan, qalqon va yadrolar Xorazm vohasida mil.avv. I ming yillik o'rtalarida aholi harbiy harakatlar jarayonida keng foydalilanigan. Bu mudofaa vositasi bronza va temirdan yasalib, piyoda va otliq askarlarning old ko'krak qismini pichoq, xanjari, o'q-yoy, qilich va yadrolar zarbasidan saqlagan.

Otliq va piyoda qo'shnlarning harbiy majmuasini bolta ham tashkil qilgan. Bu harbiy qurol yaqin masofadagi hujum va mudofaada qo'llanilgan. Ajodolarimiz tomonidan mudofaa quroli sifatida yadrolar tuxumsimon shaklda, avvalo loy va keyinchalik metall hamda toshdan yasalgan. Murg'ob vohasidagi manzillarning madaniy qatlamanidan ilk loydan yasalgan yadrolar topib o'r ganilgan. Hajmi o'rtalari darajali va salmog'i bilan dushmanga shikast yetkazadigan loy va toshdan yasalgan yadrolar Sopollitepa uy-joy xonalaridan olingen. Antik davrda ham loy va toshdan qilingan yadrolarning mudofaada qo'llanilishi davom etgan. Xorazm vohasidagi Quyisoy yerto'la shaklidagi manzil dan toshdan qilingan tuxumsimon yadrolar topilgan [7, C. 22].

### **Tadqiqot natijalari:**

Xumbuztepa, Dingil'ja yodgorliklaridan loydan qilingan shar shaklidagi yadrolar topilgan bo'lib, ularning aylanasi hajmi 3,7x4,0 sm, 5-4,9 sm, og'irligi 50-100 g.[8, C. 188. рис 56].

Kichik Qirqizqal'a, [9, C. 86, рис. 5,7,8,9,10.] Kaparas, To'qqal'a, Qo'yqirilganqal'a va Tuproqqa'l'a yodgorliklaridan loydan yasalgan yadrolar ko'plab olingen. Qo'yqirilganqal'aning markaziy

inshooti quiy qatlamanidan tosh va loydan qilingan shar shaklidagi yadrolarning hajmiga qarab ikki xilga ajratish mumkin: og'ir hajmiga ega bo'lgan sharlar aylanasi 7,2 sm, og'irligi 238 g. Kichik va yengil hajmiga ega bo'lganlar aylanasi 6,5-4,5sm, og'irligi 208-77,5g. Toshdan yasalgan yadrolarni ham ikki xilga ajratish mumkin. To'g'ri shaklga ega bo'lgan yirik hajmli og'irligi 507.98 g, aylanasi 7,8-4,4 sm. Ikkinci guruh shar shaklida bo'lib, uning aylanasi 6,2-4,5 sm, og'irligi 262-142 gr [10, C.138, рис 55. 1-4, 5-7, 8-10].

To'qqal'adan pishirilmagan loy shaklidagi yadrolar topilgan bo'lib, uning aylanasi 5.5-4.5sm.[11, C.17]. Shu bilan birga, Aqchagelin, Gaurqal'a 1,2, Qal'aliquir, Bozorqal'a, Katta Oybug'irkal'a, Xumbuztepa va Xiva yodgorliklaridan yuqorida qayd etilgan ashyolar olingen. Turonning tarixiy-madaniy mintaqalardagi qal'alaridan olingen yadrolar Xorazm vohasi aholisi tomonidan mudofaa da ishlatilgan yadrolarni tasvirlaydi. Shimoliy Baqtriya hududidagi Zartepa, Talashgan -1da, [12, C. 48.] Janubiy Baqtriyada esa Dilberjinda o'r ganildi [13, C.96-97]. Marg'iyona va Parfiya yodgorliklaridan aylana shakldagi tosh va loydan qilingan yadrolar olingen. Xorazm qishloq va shaharlaridan olingen yadrolarini aynan o'xshash ashyolar Marv shahrini qazish vaqtida topilgan [14, C. 32-43].

### **Xulosa:**

Tarixning barcha davrlarida ham samarali hujum uyuşhtirish yoki ishonchli himoyalanish uchun kishilar yirik harbiy ittifoqlarga birlashishga majbur bo'ldilar. Ko'chmanchilar ilk konfederatsiya birlashmalari davridayoq harbiy lashkarlar tuzila boshlandi. Harbiy yetakchilarning jamiyat hayotidagi ahamiyati oshib bordi. Shu tariqa urushlar va harbiy san'at tarixi boshlandi.

Qadimgi davrdagi harbiy istilochilik yurishlarini va umuman urushlarni keltirib chiqargan sabablar ichida iqtisodiy faktorlar yetakchi o'rinda turganligini ko'ramiz. Jumladan, ko'chmanchi chorvador xalqlarning o'troq dehqonchilik xo'jaliklariga uyuşhtirgan harbiy bosqinlari ham ko'p hollarda yangi yerkarda, sero't yaylov larga bo'lgan ehtiyoj oqibatida kelib chiqqani holda, ikkinchi navbatda o'zlarining iqtisodiy muammolarini talonchilik yurishlari yo'li bilan hal qilishga urinishlari oqibati o'laroq, o'troq dehqonchilik voha va vodiylariga doimo bosqinlar uyuşhtirib turganlar.

Harbiy to‘qnashuvlarning kelib chiqishiga olib kelgan keyingi faktorlar sifatida siyosiy yoki ijtimoiy sabablarni ko‘rsatish mumkin. Jumladan, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayotni qattiq nazorat qilishga qaratilgan yirik siyosiy maqsadlarni amalgalashishga xizmat qilgan harbiy-istilochilik urushlari odatda kuchli markazlashgan davlatlar tomonidan olib borilgan. Bunday urushlarning asosiy maqsadi boshqa davlatlar ustidan siyosiy hukmronlik o‘rnatishdir.

Orolbo‘yi ko‘chmanchi qabilalari harbiy san’ati O‘rta Osiyodagi boshqa xalqlar harbiy san’ati bilan chambarchas bog‘liqlikda shakllandi va rivojlandi. Ilk ko‘chmanchi qabilalari (skiflar, saklar, sarmatlar) dasht sarhadlarida ixtiro qilingan turli xildagi qurol-yarog‘larning katta hududlarda tarqalishiga ko‘maklashgan. Kamon va uning o‘qi, bronza paykonli nayza, xanjar va qilichlar, shular jumlasidadir. Yozma manbalarda “xorasmiyar” deb atalgan elat va Orolbo‘yi saklarining Mil. avv. VI asr ikkinchi yarmi – mil. avv. V asrlarda ahamoniylar davlati tarkibiga kirishi natijasida siyosiy omillar va tashqi aloqalarning kengayib borishi jarayoni qurollanish va qo‘sishin tuzilishiga ta’sir qiladi. Antik davrda Xorazm vohasida va saklar jamoalarida qurol-yarog‘lar hujum va himoyalanish maqsadida ishlatalib, nayza, xanjar va uzun qilich bilan qurollangan hamda sovut bilan himoyalangan otliq askarlarning jang usullari rivojlangan, shuningdek, yengil qurollangan otliq suvoriyilar va piyoda qismlarning jangovar harakatlari muhim ahamiyatga ega bo‘lgan.

#### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):**

1. Мамбетуллаев М. Вооружение и военное дело Хорезма. Кн. Археология Приаралья. Вып 6, 2003, стр. 31.

2. Сатимов Б. М. Оролбўйида қадимги ҳарбий иш ва мудофаа тизими тарихи... – Б. 84.
3. Сатимов Б.М. Оролбўйида қадимги ҳарбий иш ва мудофаа тизими тарихи... – Б.72.
4. Толстов.С. П. По древним делтам Окса и Яксарта. –М., Наука. 1962. –С. 149.
5. Ягодин. В. Н. Сарматский Курган на Устюрте. КСИА, – М., Наука. 1978. – С. 154. рис 2,3.
6. Мамбетуллаев М. М. Рельефное изображение всадника на керамической фляге из Хумбуз–Тепе. // СА. – № 3. – М., 1977. – С. 278.
7. Вайнберг Б.И. Памятники Куясайской культуры // Кочевники на границах Хорезма // – М., Наука, 1979. – С. 22.
8. Воробьева М.Г. Дингилджа. Усадьба – И тысяча до. н.э в древнем Хорезме. – М., Наука. 1973. – С. 188. рис 56.
9. Хужаниёзов Г. Малая Кирккизкалъа - городище раннеантичного Хорезма. Археология Приаралья. – Ташкент, “Фан”, Вып.-4, 1990. – С. 86, рис. 5,7,8,9,10.
10. Кой-крылган-кала-Памятник культуры древнего Хорезма. IV в.до.э.- IV в.н.э. – М.: Наука. 1967. – С.138, рис 55. 1-4, 5-7, 8-10.
11. Гудкова А. В. Туккалъа. – Ташкент, “Фан”. 1964. – С. 17.
12. Сабиров К. Кушанская фортификация в свете раскопок на городище Зартепе. Бактрийские памятники. – Л., “Наука”. 1976. – С. 48.
13. Кругликова И.Т. Дилбержин (раскопки 1970 – 1972 гг). Том-1, – М., “Наука”, 1974. – № 1. – С. 96-97.
14. Усманова З. И. Кирамическое ядро из Мерва. Тр. ТашГУ, Новое серия, Вып-172, Исторические науки, кн. 37, Археология Средней Азии Т-V. – Ташкент: 1960. – С. 32-43.

